

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.D.Baxronov</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
<b>H.S.Ergashev</b>	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi .....	207
<b>I.T.Boltaboyev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
<b>U.X.Kolmatov</b>	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
<b>F.B.Rahmonova</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili .....	225
<b>J.Saburov</b>	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri ....	230
<b>B.A.Pulatov</b>	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari .....	236
<b>S.S.Evaton</b>	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi .....	245
SIYOSAT	
<b>Sh.Ismoilov</b>	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш .....	249
<b>D.Sh.Mahkamov</b>	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar .....	252
<b>R.Nurimbetov</b>	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari .....	255
<b>B.X.Allamurodov</b>	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan) .....	258
<b>M.B.Nabiев</b>	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
<b>N.Madumarova</b>	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida .....	269
<b>A.A.Buriyev</b>	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba .....	273
<b>D.Mamadjonova</b>	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
<b>Бурхониддин Чалодиддин</b>	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
<b>M.T.Musaev</b>	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi .....	292
<b>R.A.Arslonzoda</b>	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни .....	297



УО'К: 101.1

**TEMURIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARI TASAVVUFİY-FALSAFIY QARASHLARIDA  
KOMIL INSONGA OID G'ÖYALARİNG RIVOJLANISHIDA AMIR TEMURNİNG O'RNI**

**РОЛЬ АМИРА ТЕМУРА В РАЗВИТИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О СОВЕРШЕННОМ  
ЧЕЛОВЕКЕ В МИСТИКО-ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ПЕРИОДА  
ТИМУРИДОВ**

**THE ROLE OF AMIR TEMUR IN THE DEVELOPMENT OF IDEAS ABOUT A PERFECT  
PERSON IN THE MYSTICAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF THE THINKERS OF THE  
TIMURID PERIOD**

**Boltaboyev Iqboljon Tursunaliyevich**   
Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada Temuriylar davrida tasavvuf rivoji va uni tadqiq qilishning nazariy-metodologik muammolari, Temuriylar davri mutasavvuflarining tasavvufiy falsafiy qarashlarida komil inson talmizi, Temuriylar davrida mutafakkirlarining komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'mi tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье рассматривается развитие суфизма в период Тимуридов и теоретико-методологические проблемы его исследования, трактовка совершенного человека в суфийско-философских воззрениях суфииев периода Тимуридов, значение взглядов мыслителей периода Тимуридов относительно воспитания совершенного человека. Кроме того, анализировалась Роль Амира Темура в развитии представлений о совершенном человеке в мистико-философских воззрениях мыслителей периода Тимуридов.*

**Abstract**

*The article examines the development of Sufism during the Timurid period and the theoretical and methodological problems of its research, the interpretation of the perfect human being in the Sufi-philosophical views of the Sufis of the Timurid period, the significance of the views of the thinkers of the Timurid period regarding the education of the perfect person. Also, The role of Amir Temur in the development of ideas about a perfect person in the mystical and philosophical views of the thinkers of the Timurid period were analyzed.*

**Kalit so'zlar:** Temuriylar davri, mutasavvuf, tasavvuf, mutafakkir, komil inson, tariqat, ma'naviy-ruhiy kamolot, istiqbol, ijtimoiy himoya, ijtimoiy davlat, tizimli-funksional tahlil, nazariy-metodologik asos, konsepsiya.

**Ключевые слова:** Эпоха Тимуридов, мистик, мистика, мыслитель, совершенный человек, порядок, духовная зрелость, перспектива, социальная защита, социальное государство, системно-функциональный анализ, теоретико-методологическая основа, концепция.

**Key words:** The era of Timurids, mystic, mysticism, thinker, perfect human being, order, spiritual maturity, perspective, social protection, social state, systemic-functional analysis, theoretical-methodological basis, concept.

**KIRISH**

Amir Temurning islomga va uning ruhoniylariga yuksak hurmati va uning yuksak ma'naviyatlari musulmon sifatida davlatni islam qonun-qoidalari asosida tuzishi ham Mavarounnahning diniy markazga, tasavvuf markaziga aylanishiga olib kelgan. Uning denga rivoj berishda qo'llagan tadbirilaridan biri "sayyidlar orasidan layoqatli bittasini ahli islomga boshliq – sadr etib" tayinlash bo'lgan. Musulmonlarga diniy ta'lim berish uchun, xususan, shariat aqidalari va islom dini ilmlaridan tafsir, hadis, fiqh dan saboq berish uchun" har bir shaharga olimlar va mudarrislarni tayinlagan. Uning islam dinini rivojlantirib, shariatni yoygani, unga ravnaq bergani uchun islom olimlari milodiy XIV asrda "Amir Sohibqiron Muhammad dinini yangilovchisi bo'lg'ay" deb fatvo bergenlar.

Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyati davomida kuchli diniy bilimga ega bo'lgan din peshvolari va ulamolarni qadrlab, qo'llab-quvvatlab kelgan. Amir Temur markazlashgan davlatni adolat tamoyiliga asoslanib, olimu ulamolar maslahatlariga amal qilib, kengash va mashvarat

## FALSAFA

asosida boshqarishda islom olamida yuksak obro'ga ega bo'lgan, shayxlik darajasiga erishgan pirlariga e'tiqod qilib va ularning maslahatlari bilan ish tutgan.

### ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Tasavvufiy dunyoqarashning ma'naviy-axloqiy jihatlarini o'rgangan olimlar qatoriga A.Arberri, V.Jons, D.Malkolm, J.Grexm, Mir Valididdin, Vilkoks Linn, (Angliya), K.Ernst (AQSH), I.Goldsiyer (Vengriya), K.Sruk-Xyurgronye (Gollandiya), Lui Massinyon, J.G.Tassi (Fransiya), Alfred fon Kremer, Frid Avgust Toluk, Y.Xammer va F.Ryukert, Yurgen Paul, Annemari Shimmel (Germaniya), YE.E.Bertels, A.M.Bagautdinov, I.S.Braginskiy, A.Krimskiy, V.Jukovskiy, I.Petrushevskiy, A.D.Knish, ET.Sovitova, (Rossiya), K.Kodirov, D.X.Fayzaliyev, D.M.Taxeri, K.S.Abduraximov (Tojikiston), I.Mo'minov, M.Hazratqulov, X.Alikulov, O.Bo'riyev, Hamidjon Homidiy, N.Komilov, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, G.Navro'zova, O.Usmon, H.Boltaboyev, R.Shodiyev, J.Xolmuminov, B.Nomozov, D.Sayfullayeva, X.Samatov, F.Muzaffarov, V.Cho'liyeva va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sohibqiron pirlaridan birinchisi shahrisabzlik Shayx Shamsiddin Kulol bo'lgan. Xoja Shamsiddin Kulol XIV asr boshida Qashqadaryo vohasida tavallud topgan va yoshlikdan darveshlik yo'lini tutgan. Xoja Shamsuddin Amir Temurning otasi amir Muhammad Tarag'ayning ham piri bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Xoja Shamsiddin Amir Temurning tavalludini va jahongirlik saodatini oldindan karomat qilgan, Amir Temurning muborak ismini ham Xoja Shamsuddin qo'ygan, Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Amir Temur 1363 yili Puli Sanginda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozongach, qadimiy Kesh shahriga kelib, shayx Shamsiddin mozorini ziyyarat qilgan. Shunga ko'ra, Amir Temur piri deb ta'riflangan Shayx Shamsiddin Kulol, taxminan, hijriy 764 (milodiy 1362-1363 yillarda) yillarda vafot etganligi qayd qilingan.

Amir Temurning ikkinchi piri Sayyid Amir Kulol bo'lib, Buxoroning Suxor qishlog'ida yashagan va xojagon tariqatini Abdulkoliq G'ijduvoniydan keyin davom ettirgan. Manbalarga ko'ra Amir Temur Amir Kulol bilan, taxminan, 1363 yilda tanishgan. Amir Kulol Amir Temurga Xorazm safarini maslahat bergen va zafar tilagan.

"Shayxul buyuk", "Sultonul tariqa", "Burhonul haqiqat", "Hazrat borif'at", "Sharaful mustaffvil", "Zaynul vorisun val muhaqqiqin" kabi faxrli unvonlar egasi Sayyid Amir Kulol 1370 yilda olamdan o'tagach, Hazrathning vasiyatiga asosan, Mavlono Orif Deggaroniy bilan Xoja Bahouddin Naqshband ul zoti sharifning muborak jasadlarini tuproqqa qo'yganlar.

Ba'zi manbalarda Sayid Amir Kulol bilan Shamsiddin Kulolni bir shaxs degan noto'g'ri ma'lumotlar ham berilgan bo'lib bular aslida bitta shaxs bo'Imaganini aytib o'tish joizdir.

Amir Temur ardog'idagi uchinchi pir Zaynuddin Abubakr Tayobodiy bo'lib, Hirot yaqinidagi Tayobod qishlog'ida dunyoga kelgan. Amir Temur bilan Mavlono Zaynuddin juda ko'p bor uchrashib suhbatlashganlar. "Tarjimai hol" asaridagi rivoyatlardan birida hazrat Amir Temur tilidan bu ikki zot taqdirda muhim o'rın tutgan uchrashuv xususida hikoya qilinadi: "Men yigirma bir yoshga to'lganimda sayohat qilmoqchi bo'ldim. Lekin avval Shayx Zaynuddin Abu Bakr Tayobodiydan duoi fotiha olmoqni niyat etdim. Shayx sayohatimga duoi fotiha berib, belimga kamar bog'lab, boshimga kuloh kiygizdi va menga bir chig'anoq uzuk tortiq qildi; uning ko'zida "Rosti-rusti" deb yozilgan ediki, uning ma'nosi "Kuch adolatda" demakdir.

Tarixiy manbalarda yozilishicha llyosxo'jaga payg'ambar avlodlari bo'lmish yetmishta sayyidni asir olgach Amir Temur jang qilib, asirlarni ozod etgan. Shundan so'ng Mavlono Tayobodiy, – sen yetmishta sayyidni asirlikdan qutqarding, endi ishonaverin, bunday buyuk ishing uchun kelajakda seni ulug' mukofotlar kutadi" deb fotiha bergen. Yana "Temur! To'rt sifatni o'zlashtirib ol: har qanday ishni tangrining ismi va marhamati bilan boshla. Ikkinchidan, o'z ishlaringda Ibrohim alayhissalomdan ibrat ol; ko'z-quloq bo'lib kuzatib yur, toki senga tobe yerlarda maishatbozlikka yoki og'ir jinoyatga yo'l qo'yma. Tirishqoqlikda laylakdan ustun bo'l. Bir laylak uyasida qarg'a bolasini ko'radi. Uch kun davomida laylak unga hech ahamiyat bermaydi, to'rtinchchi kuni esa to'rt yuzta laylak uchib kelib, uning uyasida qarg'ani ko'rgani uchun uya egasini cho'qib o'ldiradi. Uchinchidan, har qanday ishni, payg'ambarimiz singari, odamlar bilan maslahatlashib boshla. Har ne ishni birov bilan maslahatlashmay, o'zboshimchalik bilan amalga oshirgan hokimlar bo'lgan. Lekin ularning saltanati uzoqqa cho'zilmagan. To'rtinchidan, choryor xalifalardan ibrat ol; jasur, g'amxo'r va saxiy bo'l; har bir ishni g'oyat e'tibor berib bajar, toki qushlar harakati senga ibrat bo'lsin, ular jo'ja ochadigan tuxumni behad diqqat va e'tibor bilan yoradilar" deb nasihat qilgan ekan.

“Tuzuklar”da Amir Temurga mavlono Zaynuddin tomonidan bitilgan juda ko’plab maktublar qayd etilgan. Ular asosan Sohibqironning maslahat so’rab yozgan xatlariga javob bo’lib, Amir Temurning davlatchilik siyosatini belgilashda g’oyat muhim o’rin tutgan.

Muarrix Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur mudom: “Sultanatimdan orttirgan jamiyki boyligim va mustahkam ma’volarni fath etganim — barchasi Shayx Shamsuddin al-Faxuriy (Kulol)ning duosi. Mavlono Zaynuddin Abu Bakr Tayobodiy himmatidan va bor topgan barokatim esa yolg’iz Sayyid Baraka sharofatidandir”, degan ekan.

Temurning yana bir piri Mir Sayyid Baraka bo’lib, Amir Temur Mir Sayyid Baraka bilan ilk bor 1370 yilda uchrashgan. Manbalarga ko’ra, payg’ambar avlodiga mansub Mir Sayyid Barakaning ruhoniy qudrati haqida ko’plab rivoyatlar mavjud. Ibn Arabshoh ulardan birini bunday hikoya qiladi: “Dasht va Totor sulton To’xtamishxon Amir Temur va sulton Husayn o’tasida yuz bergan mojaroni ko’rgach, qoni qaynab g’ayirligi keldi. Negaki, ular (To’xtamishxon va sulton Husayn) nasabi jihatidan bir-biriga yaqin va qo’shni edi. U ko’p askar, dengizdek hayqirgan qo’shin to’pladi va Sig’anoq O’tor tarafidan Amir Temur lashkargohi tomon yo’l oldi. Amir Temur Samarqand tarafdan qarshi chiqdi... Ikki o’rtada urush “bozori” qizidi. Jang oldi-sotdilar avj oldi va nihoyat, Temur askari (un bo’lib yanchilmaguncha) muhoroba tegirmonining toshlari aylanaverdi. Temur sipohi parokanda bo’lib, himoya tuguni yechilayotgan bir paytda banogoh Sayyid Baraka ismli zot paydo bo’ldi va Amir Temurga yovuq keldi. Temur – u g’oyatda tang holatda qolgan edi – boyagi zotga yuzlanib: “Ey sayyid afandim! Sipohi yengildi!” dedi.

“Qo’rqma!” – dedi unga Sayyid Baraka. Keyin tulporidan tushdi va yerdan bir siqim tuproq olib, yana bo’z otiga mindi. So’ng o’sha tuproqni bostirib kelayotgan dushman yuziga sochib, “Yog’i (dushman) qochdi!” deb baqira boshladi. Amir Temur ham yordam qo’lini cho’zgan shayxni takrorlab baqiraverdi... Shunda Amir Temur askarlari... raqiblariga qarshi dadil ma’rakaga tushdi. Uning qo’shinidagi zaifu jasur bor jangchi “Yog’i qochdi” deb qichqirdi, baqirmagani qolmadı. Nihoyat, ularni bir-birini qo’llab-quvvatlab va (bir-biriga) madad tilab, yog’iy ustiga hamla qildi. To’xtamish qo’shini mag’lubiyatga uchradi va orqasini o’girib taraqaylab qochdi. Amir Temur askarlari ular bo’yniga tig’ solib, ajal qadahin ichirdilar... Amir Temur nazarida Sayyid Barakaning e’tibori oshdi... Amir Temur unga: “Neki istarsiz, so’rang va har ne murodingiz bo’lsa, tilang!” – dedi.

Bizningcha Amir Temur tasavvufni o’z davlati va siyosatida qo’llab quvvatlashining asosiy sababi faqat Allohnинг yoki Muhammad payg’ambarning muqaddas so’zlarigina emas, balki unda mavjud bo’lgan axloqiy qoidalar, kishilar, xalqlar, millatlar o’tasidagi ittifoqni va o’zaro aloqani mustahkamlay olishga qodir bo’lgan umuminsoniy qadriyatlarning mavjudligidadir.

Amir Temur hayoti davomida e’tiqod qo’ygan va ixlos qilgan ulug’ kishilar ko’p bo’lib, Sohibqiron din peshvolari va ulamolarni qadrlagan hamda qo’llab-quvvatlagan, ustozlarining o’git va hikmatlarigagina emas, hatto ularning muborak qadamlaridan to’kilgan changu g’uborlarni ham e’zozlaydigan sadoqatli shogird bo’lgan.

Kengashlarda Amir Temurning qarindosh-urug’lari, oliy ruhoniylar tabaqasining vakillari va olimlar, amirlar va amir ul-umaro, beklarbegi, uluslar va tumanlar boshliqlari, mingboshilar, yuzboshilar, o’nboshilar, bahodir unvoniga ega bo’lgan harbiylar va boshqalar ishtirok etgan. Ularning majlis paytda qayerda o’tirishi yoki turishi, majlisni o’tkazish tartibi aniq belgilab qo’yilgan. Bunday kengashlarda din ahlining oliy vakillari ishtirok etishi, ularning mamlakatda katta nufuzga ega ekanliklaridan dalolat beradi. Buning e’tiborga molik jihat shuki, sayyidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, shayxlar va ulug’lar taxtning o’ng tomonidan o’rin olganlar. Amir Temur davlatida shayxulislom, sadri a’zam kabi mansabdar shaxslar ham faoliyat olib borgan.

Shayx ul islom – musulmon jamoasining boshlig’i bo’lgan. Sadri a’zam lavozimidagi amaldor katta vakolatlarga ega bo’lgan. Bu haqida “Temur tuzuklarida” shunday deyiladi: “Ravshan dinga rivoj berishda qo’llagan birinchi tuzugim shu bo’ldiki, sayyidlar orasidan layoqatli bittasini ahli islomga boshliq – sadr etib tayinladim. Barcha vaqflarni boshqarish va nazorat qilish uchun mutavallii tanlashni, har bir shahar va viloyatda qozi, muftiy, muhtasib tayinlashni uning o’ziga havola qildim. U sayyidlar, ulamo, shayxlar va boshqa arboblarga loyiq suyurg’ol belgilab, har birining vazifasini tayin qilsin, dedim”.

Mamlakatda islom qozisi faoliyat olib borgan va u ahdos qozisi va lashkar qozisidan farqli ravishda shariat asosida qaror chiqargan. Amir Temur davlat boshqaruviga oid masalalar yuzasidan din ahllari bilan maslahatlashib turgan. “Sayyidlar, ulamolar, shayxlar va fozillarni o’zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlislarimni bezab turishdi. Diniy,

**FALSAFA**

huquqiy, aqliy masalalarni o‘rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishardi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o‘rgandim”.

**XULOSA**

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, temuriylar davlatida sayyidlarning mavqeい yuqori bo‘lgan. Buning sabablari sifatida quyidagilarni aytish mumkin: xojalar, sayyidlar somoniylar davridan boshlab davlat ishlarida muhim lavozimlarni egallaganlar. Ular naqib ul-nuqabo (ulug‘ naqib) va shayxulislom darajalariga ega bo‘lganlar. Lekin keyinchalik Chingizxonning O‘rta Osiyoni bosib olishi, ilm-fan va madaniyat o‘choqlari bo‘lgan masjidlar, madrasalar, kutubxonalarining vayron qilinishi, olimlarning quvg‘inga uchrashi, mahalliy mulkdorlar, jumladan, din ahli yuqori tabaqalarining mol-mulkleri talon-taroj qilinishi oqibatida din peshvolari o‘zlarining avvalgi darajalarini yo‘qotdilar. Chunonchi, “Tuzuklarda” ta’kidlanishicha ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning zulmidan sayyid va sayyidzodalardan yetmis kishi asir qilib olib ketilayotganda Amir Temur ularni qimmatbaho sovg‘alar evaziga qutqarib oladi. Shundan so‘ng Sohibqironning sayyidlar, xojalar oldida hurmati oshib, ularning qo‘llab-quvvatlashiga erishadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-Мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари. 2-қисм. – Т.: Мехнат, 1992. – Б. 44.
2. Ислом фалсафаси тарихи. Ҳенри Корбен, Доктор Асадулло Мубашаррий тарж., Амир Кабир нашр, 1371 ҳ.й. – Б. 252.
3. Избуллаева Г.В. XIII асрларда дидактик асарларда тасаввуф мактаби ва таълимот. National University of Uzbekistan Volume 3 | NUU Conference 2 | 2022. – Б. 493-498.
4. Комил инсон ҳақида тўрт рисола: Фаридиддин Аттор, Султон Валад, ‘Азизиддин Насафий, Ҳусайн Во‘из Кошифий ижодидан намуналар / Форс-тоҷик тилидан Н.Комилов тарж. – Т.: Маънавият, 1997.– Б. 185.
5. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: Мовароуннахр. 2004. – Б. 30.
6. Сулами. Табақот ас-суфийа. Қоҳира: Мактабат ал-Хонажи, 1986. – Б. 434.
7. Темур тузуклари. – Тошкент, 1996. – Б. 74.